

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
FUQAROLIK JAMIYATI VA QONUN USTUVORLIGI
TUSHUNCHALARINING O'ZARO MUNOSABATI

Rustamov Xusan Abdusalomovich
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
Tel: 97-275-80-99 e-mail: rustamov.husan@inbox.ru

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatni va qonun ustuvorligi tushunchalari haqida ma'lumotlar, tarixiy kelib chiqishi, uning o'zaro munosabatlari va bir-biriga ta'sir doirasi haqida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Fuqarolik jamiyatni, qonun ustuvorligi, huquqiy davlat, strategik maqsad, siyosiy boshqaruv.*

Mustaqillikka erishganimizdan keyin bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi hamda mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirishni strategik maqsad sifatida belgilab oldik.

Bugungi kunda, har bir davlat jahon hamjamiyatida munosib o'ringa ega bo'lishi va o'z xalqiga munosib turmush darajasini ta'minlashi uchun eng avvalo demokratik boshqaruv tizimi, iqtisodiy barqarorlik, mamlakatda qonun ustuvorligi va inson huquqlarining ta'minlanishi, fuqarolik jamiyatni institutlarining rivoji, aholining ijtimoiy-siyosiy madaniyati, fuqarolik pozitsiyasining yuqoriligi kabi ko'plab omillar asos bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish har bir mamlakat uchun ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar huquqiy demokratik davlat qurish yo'lidan borar ekan, albatta fuqarolik jamiyatini qurish va qonun ustuvorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadilar.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Sohibqiron Amir Temur bobomiz “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday sultanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, deb ta’kidlagan edilar. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezoni hisoblanadi.

Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq.

Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo‘lishi shart, deganidir [1].

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash - amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni ta’minlashning asosiy kafolatidir [2].

Fuqarolik jamiyati –konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli; insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko‘p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta’minlanadigan hamda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mavqeい baland bo‘lgan ijtimoiy tuzum. Bunda mamlakatning har bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va huquqiy jihatdan o‘z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar. Fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatadilar, davlatning ko‘pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi[3].

Xususan, Rossiyalik siyosiy fanlar doktori V.G.Domanov “fuqarolik jamiyati” atamasini “Ijtimoiy qarashlarning iqtisodiy va siyosiy tashabbuslari siyosat va davlat mafkurasi bilan qarama-qarshi bo‘lgan tashqi tuzilmalardan emas, balki shaxs va fuqarodan kelib chiqqan shaxsiy mulkiy munosabatlarga asoslangan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ijtimoiy xulq-atvor tizimi” [4] - deb izohlaydi.

Fuqarolik jamiyatni davlatning fuqarolari, ularning ixtiyoriy ravishda birlashgan guruh, jamoa va tashkilotlari, ya’ni o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq, yuksak siyosiy va huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan kishilardan iborat jamiyatdir. Fuqarolik jamiyatni nafaqat davlatning majburlov kuchi bilan, balki uning a’zolari bo‘lmish fuqarolarning bevosita o‘zlari, ularning jamoalari orqali ongli ravishda boshqarib turiladigan va qat’iy tartib-intizom qaror topgan jamiyatdir. Bunday jamiyat boshqa jamiyatlardan o‘zini o‘zi yuksak darajada tashkil etishi va boshqarib turishi bilan ajralib turadi [5].

Fuqarolik jamiyatni tadrijiy yaratiladi. Davlatning tashqi tuzilishi bo‘lgan hollarda, biz ushbu konsepsiyanı protektsionizm uchun aniq yoki latent shakllarda almashtirilishi holatiga duchor bo‘lamiz. Dunyoda fuqarolik jamiyatining rivojlanish jarayoni ko‘p yo‘nalishlidir. Asosiy muammo shundaki, zamonaviy fuqarolik jamiyatini yaratish o‘z-o‘zini ifoda etish qadriyatlarining paydo bo‘lishi va faoliyat yuritishini, fuqarolarning turli siyosiy harakatlardagi ishtiroki orqali amalga oshirilishini o‘z ichiga oladi. Fuqarolik o‘z-o‘zini ifoda etish qadriyatlariga qo‘yiladigan talablarning rivojlanish darjasini muayyan jamiyatda fuqarolik madaniyatining qanchalik rivojlanganligini belgilaydi.

Qonun ustuvorligi konsepsiysi fuqarolik jamiyatni g‘oyasi bilan uzviy bog‘liqdir, fuqarolik jamiyatni qonun ustuvorligi bilan deyarli bir vaqtning o‘zida rivojlangan shaklda paydo bo‘ladi. Huquqiy davlat nazariyasi asoschilaridan biri ingliz faylasufi Jon Lokk bo‘lib, u 1690-yilda “Siyosiy boshqaruv to‘g‘risida ikki risola” asarida davlat hokimiyatini hokimiyatdan ustun turadigan qonun bilan o‘zini-o‘zi cheklash g‘oyasini ilgari surgan edi.

Huquqiy davlatning mohiyati shundan iboratki, davlat qonun bilan bog‘langan, hokimiyat qonun bilan tashkil etilgan, faqat huquqiy chegaralar va shakllar doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Tarkibiy jihatdan huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining huquqiy faoliyatini kafolatlovchi, muhofaza qiluvchi davlat organlari va institutlari tizimidir.

2023-yil 30-apreldagi referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan (1-modda) “O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” [6] - deb e'lon qilindi. Ko'rinib turibdiki, bu qoida davlatning istalgan holatini aks ettiradi, biz demokratik taraqqiyot jarayonida bunga erishishimiz kerak.

Huquqiy davlat g'oyasining kelib chiqishi uzoq tarixga borib taqaladi. Buyuk yunon faylasufi Aflatunning yozishicha, davlatchilik qonunlar hukmron bo'lgan joyda paydo bo'ladi, “Qonun hukmdorlar ustidan hukmdor, ular esa uning qu'llaridir”. Qonunlar adolat bilan himoyalanishi kerak. Aks holda qonunlaradolatsizliklar va razolat uchun hizmat qilishi mumkin.

Nemis faylasufi Immanuil Kant “davlatning ezguligi va maqsadi mukammal qonunda, davlatning tashkil etilishi va siyosiy rejimining axloq va huquq tamoyillariga maksimal darajada mos kelishida...” degan tezisni asoslab berdi. I.Kant davlatning qonunga tayanishi, o'z harakatlarini u bilan muvofiqlashtirishi zarurligini doimo ta'kidlab kelgan. Huquq va erkinliklarni ta'minlamagan, o'zining ijobiy qonunchiligi himoyasini ta'minlamagan davlat fuqarolarning ishonchi va hurmatini yo'qotish xavfini tug'diradi.

I.Kant tomonidan e'lon qilingan xalqning ustunligi davlatdag'i barcha fuqarolarning erkinligi, tengligi va mustaqilligini shart qilib qo'yadi. Kantning “qonun ustuvorligi” hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi tamoyiliga asoslanadi. Huquqiy davlat fuqarolari erkinlik, tenglik, mustaqillik (iqtisodiy jihatdan) kabi asosiy vakolatlarga ega edilar.

Huquqiy davlat g'oyasiga ko'ra, fuqarolar qonun bilan ta'qilganmagan hamma narsani qila oladi, davlat faqat qonunda ko'rsatilgan ishlarni qila oladi, odil sudlov mustaqil bo'lishi va shaxsning aybsizlik prezumpsiyasiga asoslanishi kerak. Huquqiy davlat uchun davlat va xalq o'rtasidagi munosabatlarda qonunlar ko'rinishidagi qonun ustuvorligi eng muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, inson huquqlari har qanday jamoa (guruh, qatlam)ning huquqlaridan ustun bo'lishi kerak va jamoaviy demokratiya konsepsiyasidan farqli o'laroq, millat huquqlari davlat huquqlaridan ustun bo'lishi kerak.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Huquqiy davlat ko‘ppartiyaviylik, ham hukmron doiralar, ham fuqarolarning muxolif siyosiy birlashmalari uchun huquqiy faoliyat imkoniyati bilan tavsiflanadi. Huquqiy davlatning huquqiy hujjatlari talablari barcha jamoat va siyosiy institutlar, barcha fuqarolar, jamiyatning barcha sohalari faoliyatiga taalluqlidir. Huquqiy davlatdagi har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega axborot fuqarolar uchun mavjud bo‘lib, ommaviy kommunikatsiya vositalari imkon qadar davlatdan mustaqil bo‘lishi kerak.

Demak, qonun ustuvorligi siyosiy tushuncha sifatida davlat taraqqiyotining ma’lum bir darajasini odamlarning huquqiy normalar va qonun ustuvorligi oldida tengligi, davlat qonunlarining inson huquqlariga qat’iy rioya etishi ustuvor tamoyillari bilan ifodalaydi.

Birinchidan, fuqarolik jamiyatni faqat demokratiya sharoitida mavjud bo‘lib, shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining yetarli darajada rivojlanishi jamiyatni yanada demokratlashtirishni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyatining turli modellarini hisobga olish, uning tuzilishi va davlat bilan munosabatlariga bir taraflama qarash bilan cheklanib qolmasdan, fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlatning markazlashgan hokimiyat tartiblari birligi imkoniyatlarini oldindan ko‘rish kerak. Demokratik hayot tamoyillari ijtimoiy borliqning barcha sohalarida o‘rnatalishi, faqat siyosat va ijtimoiy boshqaruv bilan cheklanib qolmasdan, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning barcha sohalariga singib ketishi kerak.

Qonun ustuvorligi nafaqat insonlarning huquq va erkinliklarini ta’minlaydi, balki fuqarolarning rivojlangan huquqiy ongini qo‘llab-quvvatlaydi va shakllantiradi hamda fuqarolik jamiyatni qurish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 07.12.2019. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3119>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

2. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yulimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017, 1-tom, 48-bet.
3. Fuqarolik jamiyati tushunchasi. URL:
https://uz.wikipedia.org/wiki/Fuqarolik_jamiyati
4. Доманов В.Г. Современное гражданское общество в контексте структурнофункционального дискурса. Ростов- н/Д.: Изд-во СКАГС, 2010. 30 стр.
5. Fozilov U.E. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning nazariy va huquqiy asoslari. Toshkent, 2016. 7-bet
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023-yil.
<https://lex.uz/docs/-6445145>